

MUSTAQIL MA'NOLI FE'LLARDA GRAMMATIKALIZATSIYA HODISASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MISOLIDA)

*Sh. Ashurov*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida mustaqil ma'noli fe'llarning grammatikalizatsiyalashuvi mustaqil fe'llarning ko'makchi xususiyatga o'tishi misolida tadqiq qilingan. Grammatikalizatsiya va desemantizatsiya hodisalari bilan chambarchas bog'liq, ya'ni bu hodisa bir vaqtning o'zida kechishi hamda aynan ko'makchi fe'llar misolida grammatikalizatsiya va desemantizatsiya hodisalari o'rtasidagi yaqinlik ko'rsatib o'tilgan.

Key words: grammatikalizatsiya, desemantizatsiya, mustaqil va ko'makchi fe'lar, leksik va grammatik ma'no, konversiv, analitik, suppletiv.

Grammatikalizatsiya hodisasi tarixiy ildizga ega. Bu atama ilk marta 1912-yilda fransuz olimi va lingvisti Antuan Meye hamda uning zamondoshlari tomonidan talqin qilingan. Masalan, Eji Kurilovichning so'nggi ishlari buning tasdig'idir [4. Курилович .Е, 1963]. Hozirgi kunda tilshunoslikda grammatikalizatsiya hodisasining ayrim tadqiqotlar ob'ektiga aylanayotganligi sir emas, albatta. SHu bois biz ham o'z ilmiy maqolamiz mavzusi sifatida ushbu hodisani ko'makchi fe'llar misolida qiyosiy tadqiq qilishni tanladik.

Ko'makchi fe'llar grammatikalizatsiyalanish darajasiga ko'ra birinchi bosqichda turadi. Chunki u matn bilan bog'liq nutq hodisasidir. So'z birikmasi tarkibiy qismlaridan birining ma'nosi leksik jihatdan o'zgarib, grammatik tomondan mustaqilligini yo'qotsa, u asta-sekin mavhumlashib, o'zidan oldingi elementga qo'shimcha ma'no berishga ko'maklashuvchi yordamchi so'zga aylanadi. Ko'makchi fe'llar ham til tarixining ma'lum bir bosqichlarida so'z birikmasi sanalgan.

Demak, ko'makchi fe'llarning paydo bo'lish ildizi, avvalo, ikki va undan ortiq mustaqil so'zlardan tuzilgan so'z birikmasi tarkibidagi qismlardan birining grammatik ma'nosi kuchaya borishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab hodisaga borib taqaladi. Grammatik ma'no taraqqiyoti natijasida kuzatilayotgan til elementida mazmundan shaklga siljish sodir bo'ladi. So'z mustaqil holatdagi ma'nodan emas, balki grammatik shakldan iborat bo'ladi.

Grammatik ma'no ifodalashning bir turi hisoblangan grammatikalizatsiya hodisasi ingliz va o'zbek tillarida ham umuman bir xil kechadi. Bu ikkala tilda ham mustaqil ma'noli fe'llarning o'z leksik ma'nosini yo'qotib, grammatik ma'no ifodalash vositasiga aylanish holati grammatikalizatsiyalashuv jarayonining eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Quyida biz ushbu muammoni ikki til nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Tahlilga tortilgan inglizcha misollar asosida so'zlarning aynan ko'makchilashish doirasidagi o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Xususan, ingliz tili misolida ko'makchi so'zlar holatini birma – bir ko'rib chiqamiz, ya'ni qanday hollarda leksik ma'no kasb etadigan ma'lum bir so'z grammatik ko'rsatkichga aylanishi mumkinligi hollarini sanab o'tamiz.

1. So'zning mustaqil leksik ma'nosini yo'qotib, yordamchi so'z vazifasida qo'llanilishi, yordamchi so'zga aylanishi grammatikalizatsiya hodisasining eng asosiy omilidir. Masalan, ingliz tilidagi *to be*, *to have* fe'llarining yordamchi so'zga aylanishi holatiga e'tibor qilaylik:

I have a book. I have finished my book.

Bu erdagi birinchi gapda ma'noning saqlanishi, ya'ni fe'lining mustaqil fe'l vazifasida qo'llanilishi kuzatilmoqda. Ikkinchi gapda esa aynan birinchi gapdagi mustaqil ma'noli fe'l ko'makchi fe'l vazifasiga o'tishi, ya'ni ma'noning yo'qolishi kuzatilmoqda.

2. So'z birikmasining analitik shaklga aylanishi. Bunda so'z birikmasi komponentlaridan biri o'z mustaqilligini yo'qotib, yordamchi fe'lga aylanadi. Masalan: *to fall asleep* (uxlab qolmoq); *to fall in love* (sevib qolmoq).

Bu kabi birikuvlar aslida so'z birikmasi hisoblanadi, ular tarkibidagi *to fall* - «qolmoq» fe'li mustaqil ma'noga ega emas, shu tufayli ular analitik shakl hisoblanadi.

Aynan ko'makchi fe'llar misolida grammatikalizatsiya va desemantizatsiya hodisalari o'rtasidagi yaqinlikni ko'rsatish mumkin. Grammatikalizatsiya desemantizatsiya hodisasi bilan chambarchas bog'liq, ya'ni bu hodisa bir vaqtning o'zida kechadi, desak xato bo'lmaydi, albatta. Masalan, quyidagi gaplarga e'tibor qilaylik:

¹ *Ashurov Shaxobiddin Saidovich, SamDCHTI professori*

I have a book.

I have finished my work.

Birinchi gapda to have fe'li mustaqil fe'l tarzida ishlatilgan. Ikkinchi misolda esa to have fe'li yordamchi fe'lga aylangan, ya'ni bu fe'l desemantizatsiyaga uchragan. O'zining asl ma'nosini yo'qotish holati desemantizatsiya deb qaralsa, asl ma'nosini yo'qotib, grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qilishi grammatikalizatsiya deb qaraladi.

Grammatikalizatsiya hodisasi orqali fe'llarning ham mustaqil fe'l, ham yordamchi fe'l sifatida ishlatilish holatini ko'plab uchratish mumkin. Ayniqsa, yordamchi fe'l shaklida qo'llanilishi maqollarda juda ko'p uchraydi. Masalan, bunday ko'rinishni quyidagi misol orqali tahlil qilish mumkin:

Appearances are deceptive.

Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. (Tashqi ko'rinish aldamchi)

Qaltiroq so'zi oxirida odatda «-dir» qo'shimchasi bo'lishi shart, lekin u ham tarjima jarayonida tushirib qoldirilgan. Ushbu misolda «dir» qo'shimchasi to be fe'lining ko'plik formasidagi are so'ziga mos keladi. Bu erda to be fe'li gapdagi sifat so'z turkumini bog'lab, yordamchi fe'l vazifasida kelgan. Yana quyidagi maqollarga e'tibor qilaylik:

Anger is a short madness - Jahl chiqqanda aql ketadi.

Speech is silver, silence is golden - So'z kumush, sukut oltin.

Bu maqollarning birinchisida to be fe'lining is shakli qo'llanilgan va bu fe'l grammatikalizatsiya hodisasiga uchrab, ko'makchi fe'l sifatida ishtirok etgan. Bu erda u o'z ma'nosini yo'qotib, bo'lmoq emas, balki ketmoq deb tarjima qilingan. Gapdagi is ot so'z turkumini bog'lab, shu so'z turkum bilan birgalikda ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanilgan.

Ikkinchi misoldan ko'rish mumkinki, bir vaqtning o'zida grammatikalizatsiya va dissemantizatsiya hodisasiga uchragan bitta ko'makchi fe'l, ya'ni to be ishlatilgan. Bu fe'lining is shakli ikki sodda gapdan iborat qo'shma gap tarkibidagi ot so'z turkumini kesimga bog'lashda xizmat qilgan. Tarjimada to be fe'li is «dir» deb tarjima qilingan, lekin tarjimada -dir tushirib qoldirilgan. Ko'pincha bog'lamlar maqollarda tarjimada ma'nodagi g'alizlikni yo'qotish uchun tushirib qoldiriladi.

Ko'pincha aniq va majhul nisbatdagi fe'l shakllari ham grammatikalizatsiya hodisasining bir ko'rinishi bo'lishi mumkin, chunki bunda fe'l bir ko'rinishdan ikkinchi bir ko'rinishga o'tadi. Bu haqda V.G.Gak va H.Orziqulovlar o'zlarining nazariy grammatika borasidagi kitoblarida to'xtalib o'tgan.[Orziqulov.X,2000] Ya'ni ular suppletiv shaklda yasaladigan aniqlik va majhullik nisbatlarini grammatikalizatsiya hodisasining bir ko'rinishi deb talqin qiladi.

Agar biz xudi shu holatni ingliz tili nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda inglizcha fe'llarning aniq va majhul nisbat hosil qila oladigan konversiv fe'llarnigina misol qilib olishimiz mumkin. Masalan, quyidagi misolga e'tibor qilaylik:

They bring the water

The water is brought by them

Bu gaplarning birinchisi aniq nisbatda ifodalangan bo'lib, u Ular suv keltirdi deb tarjima qilinadi. Ikkinchi gap majhul nisbatda ifodalangan bo'lib, u Suv ular tomonidan keltirildi deb tarjima qilinadi. Bunda to bring majhul nisbatda brought shakliga o'zgaroqda. Majhul nisbatda albatta to be fe'li ishtirok etib, aniq nisbatda ishlatilgan fe'l shakliga qarab to be fe'li o'zgaradi. Asosiy fe'l esa sifatdosh II ga aylanadi. Bu erda ham to be fe'li ko'makchi fe'l bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi gapda aniq nisbatdagi gap shaklidagi to bring fe'lga qarab majhul nisbatda ko'makchi fe'l is olinadi va to bring fe'li brought shakliga o'zgaradi.

Bundan tashqari, ingliz tili grammatikasida so'z birikmasi komponentlaridan biri o'z mustaqilligini yo'qotib, yordamchi so'zga aylanishi ham mumkin. Masalan, To grow weary. Bu gapda to grow fe'li o'z ma'nosida qo'llanilmagan. U o'smoq ma'nosini ifodalamay, balki weary so'zi bilan birga qo'llanilib, charchab qolmoq deb tarjima qilinadi. Demak, bunda to grow fe'li o'z leksik ma'nosini yo'qotib, grammatikalizatsiya hodisasiga uchragan. Ya'ni u qolmoq ma'nosida qo'llanilib ayni vaqtda yordamchi fe'lga aylangan. Chunki «charchab qolmoq» birikmasini charchamoq deb ham bersa bo'ladi. Bu gapda to grow fe'li bir vaqtning o'zida grammatikalizatsiya hodisasiga uchragan. Bu fikrimizni quyidagi misolar ham isbotlaydi. Bu so'z birikmalarida ishtirok etgan fe'llarning barchasi ketmoq, qolmoq, tushmoq deb talqin qilinadi:

To grow better - yaxshilanib ketmoq

To grow dark - qorayib qolmoq

To fall a sleep - uxlab qolmoq

To fall in love - sevib qolmoq

To fall to pieces - qulab tushmoq

To get a fright - qo'rqib ketmoq

To turn pale - oqarib ketmoq

O'zbek tilida ham ingliz tilidagi kabi barcha mustaqil fe'llar yordamchi so'zga aylanish xususiyatiga ega emas. Barcha ko'makchi fe'llar esa doimiy taraqqiyot davomida grammatikalizatsiyalanish darajasining turli bosqichlarida turgan mustaqil fe'llar hisoblanadi. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida quyidagi fe'llar ko'makchilashadi: bor, boshla, yot, tur, o'tir, yur, ber, kel, ol, bo'l, bit, chiq, et, o't, tashla, tush, o'l, ko'r, qara, boq, bil, sol, yoz, yubor, ket, qo'y, qol.

To'plangan misollar shuni ko'rsatadiki, mustaqil fe'llarning ko'makchilashish jarayoni har xil tarzda kechadi. Shuning uchun ayrim fe'llarning grammatikalizatsiyalanish darajasi ko'proq, boshqalarniki esa kamroq, biriga grammatik ma'no kuchsizligi xos bo'lsa, boshqasiga leksik ma'no mavhumligi xos bo'ladi. O'zbek tilidagi ko'makchi fe'llar grammatikalizatsiyalanish jarayoni qanday kechishiga qarab, quyidagi bosqichlarga ajratamiz:

1. tush, chiq, yur, o'tir, kel, sol, o'l, bil, o't, yot, boq, qara, yoz, boshla, bit;
2. ol, ber, tashla, ket, ko'r, bor, kel, yot, tur, qo'y;
3. bo'l, yubor.

Birinchi guruhda turgan fe'llarda grammatik ma'no fakultativ shaklga ega bo'lib, ularda asosiy rol ni leksik ma'no egallaydi. Shu sababli matndagi birikuvda ma'noda o'zgarish borligini to'g'ri anglay olmaymiz. Bu qarashda ikkala komponent ham mustaqildek, harakatni ifodalayotgandek tuyuladi. Aslida birikma tarkibidagi birinchi fe'l etakchi, ikkinchisi esa unga qo'shimcha ma'no beruvchi yordamchi fe'ldir.

O'zbek tilidagi yur, o'tir, boshla singari fe'llar tush, chiq, sol, o'l, et, boq, qara, yoz fe'llariga nisbatan mahsuldorroq va ko'proq fe'llar doirasida qo'llaniladi va ularda grammatikalizatsiyalanish darajasi ham yuqori. Masalan: eslab (aytib, kuylab, yig'lab, kulib va hokazo) yurmoq;

Gapira (kula, ayta, sanay, yig'lay, yoza va hokazo) boshlamoq,

Ikkinchi guruhga mansub ko'makchilashuvchi fe'llarda leksik ma'noning mavhumlanishi yaqqol ko'rinish turganligi sababli ular muayyan qurilmalarda ko'makchi fe'l ekanliklariga shubha tug'ilmaydi. Ber, ket, tur, kel, qol, fe'llari grammatikalizatsiyalanish darajasiga ko'ra ol, tashla, ko'r kabi ko'makchilashgan fe'llarga nisbatan yuqori pog'onada turadi.

Masalan: o'tirib (o'ylab, sanab, supurib, o'ynab va hokazo) tur;

yaxshilanib (qurqib, oqarib, qizarib, uyalib, sog'ayib va hokazo) ketmoq;

uxlab (qorayib, sevib, oqarib, sog'inib, dardlashib va hokazo) qolmoq;

Ular asl ma'nolarini shu qadar yo'qotadilarki, birinchiidan, juda ko'p fe'llar doirasida qo'llaniladi, ikkinchiidan, hatto, ber, qol, kel fe'llarining o'zi bilan ham birikaveradi. Masalan, bora ber, qola qol, tura tur va hokazo.

Ko'makchi fe'llarning boshlang'ich nuqtasi ancha erkin xarakterga ega bo'lgan sintaksisda, aniqrog'i sintaktik vazifaning kuchsizlanishi bilan boshlanadi. Chunki, har qanday hodisa nutqda, aloqa aralashuv jarayonida oxiriga etkaziladi, so'ngra til sathiga ko'chiriladi. Shunda so'zdagi lug'aviy ma'noning xiralashuvi grammatik ma'noning aktiv o'ringa ega bo'la borishi, boshqacha aytganda, mazmundan shaklga qarab siljish kabi hodisalar yuzaga keladi. Demak, til tizimida emas, balki uning real qo'llanilishida ba'zi elementlarni tejashga intilish natijasida leksik ma'no mavhumlashadi.

Kishilar o'z tafakkurlarida aks etayotgan voqea hodisani ifodalovchi so'zni aniqlikdan mavhumlik sari rivojlantiradilar. Natijada yarashib turmoq, ishlay boshlamoq kabi birikuvlardagi turmoq, boshlamoq fe'llarida leksik ma'no anglatishdan ko'ra grammatik ma'no bildirish xususiyati kuchayadi. Ular qo'shimcha so'z birikmasi, qo'shma so'zlardan farqli ba'zi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada, nutqda asosiy fe'lsiz ishlatilmaydi. Qayd qilish kerakki, fe'llarning ko'makchilashuv jarayoni nutq hodisasidir. Ma'lum fe'llar ma'nosi nutq (matn)da mavhumlashadi. Matndan tashqarida mustaqilligini saqlaydi.

Hozirgi o'zbek tilidagi ko'makchilashuvchi fe'llar grammatikalizatsiyaning yuqori bosqichigacha davom etadimi, yoki yana ibtidosiga qaytadimi, bu haqda bashorat qilish qiyin. "O'zbek tili grammatikasi" da ta'kidlanishicha, "Qichqirib yubordi fe'lidagi yubor qismi (asl yubormoq so'zidan) ishning birdan tez bajarilishini bildiradi: u asl ma'nosini (mustaqil ma'nosini) yo'qotgan. Yordamchi – ergash elementga aylangan bundan bora-bora affiks tug'ilishi mumkin". Bizningcha, mazkur fikrga to'liq qo'shilish lozim, zero uning dalilini nutqda bemalol kuzatsa bo'ladi. Masalan, aytib yubormoq, berib yubormoq, qo'yib yubormoq, utkazib yubormoq va hokazo.

Til taraqqiyoti jarayonida so'z birikmasi qismlari orasidagi sintaktik munosabatning yo'qolishi va uning ma'no hamda grammatik jihatdan yaxlit bir holga kelishi natijasida qo'shma so'zga aylanadi. Bu holatda so'z birikmasi tarkibidagi har ikkala komponent ham o'zining alohida lug'aviy ma'no bildirish xususiyatini yo'qotadi. Masalan, Uchquduq va Katta-Qo'rg'on so'zlari uch, quduq, katta, qo'rg'on so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Hozir Uchquduq va Katta-Qo'rg'on so'zlarining ma'nosi shu so'zlarning yakka holda anglatgan ma'nosidan butunlay farq qiladi. Erkin so'z birikmasi qo'shma so'zga aylangandan so'ng uch, quduq, katta, qo'rg'on so'zlari o'zining mustaqil ma'nosini saqlamay, har ikki qism birgalikda bir so'z holiga kelgan.

Shunday qilib, grammatikalizatsiya hodisasi orqali til elementlarining nutqqa kuchirilishi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Bu jarayon til va nutq dixotomiyasi muammolaridan birining echimini taqozo etishga shubha yo'q. Boshqacha aytganda, grammatikalizatsiya hodisasi doirasida hozirgi tilshunoslikning dolzarb muammolari – leksik va sintaktik derivatsiyalarning o'zaro munosabat muammosi. Ko'makchilashgan fe'llarning boshlang'ich no'qtasi ancha erkin xarakterga ega bo'lgan sintaksisda, aniqrog'i sintaktik vazifaning kuchsizlanishi bilan boshlanadi. Chunki, har qanday hodisa nutqda, aloqa aralashuv jarayonida oxiriga etkaziladi, so'ngra til sathiga ko'chiriladi. SHunda so'zdagi lug'aviy ma'noning xiralashuvi grammatik ma'noning aktiv o'ringa ega bo'la borishi, boshqacha aytganda, mazmundan shaklga qarab siljish kabi hodisalar yuzaga keladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki so'zlarning aynan ko'makchilashish doirasidagi o'ziga xos xususiyatlari ayniqsa fe'l va ot so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlar ishtirokida hamda turg'un birikmalar tarkibida kengroq namoyon bo'ladi. Xususan, ingliz va o'zbek tillari misolida ko'makchilashuvchi so'zlar ikki holatda amalga oshishi mumkin, ya'ni so'zning mustaqil leksik ma'nosini yo'qotib, yordamchi so'z vazifasida qo'llanilishi, yordamchi so'zga aylanishi hamda so'z birikmasining analitik shaklga aylanishi. Bunda so'z birikmasi komponentlaridan biri o'z mustaqilligini yo'qotib, yordamchi fe'lga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Ашуров Ш.С. *Феълларда симметрия ҳодисаси ва унинг грамматик моҳияти (инглиз тили мисолида)*.
- [2]. Ашуров Ш.С. *Инглиз ва узбек тилларида кесим типологияси: Филология фанлари номзоди... дис. автореферати*
- [3]. Гак В.Г. *Теоретическая грамматика французского языка. I часть. Морфология.* – М., 1986. – 323 с.
- [4]. Курилович Е. *Очерки по лингвистике.* – М.: Наука, 1963. – 234 с.
- [5]. Караматова.К.М. Караматов.Х.С. *Proverbs, мақоллар пословицы. Тошкент, Меҳнат, 2000.* –284 б.
- [6]. Каримова Г. *Грамматикалашиш ҳодисасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2005. №4, 74-75 бет.*
- [7]. Махмудов Н. Нурмонов А. *Ўзбек тилининг назарий грамматикаси.* – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 230 б.
- [8]. Орзиқулов Ҳ. *Француз тилининг назарий грамматикаси.* – Самарқанд: СамДЧТИ, 2000. – 120 бет.
- [9]. Ashurov Sh. Sh A. *Typology of predicative in English and Uzbek languages.* – 2007.
- [10]. Chomsky N. *A minimalist program for linguistic theory // The view from building 20. / Hale K., S. L. Keyser (Eds).* – Cambridge (Mass), 1993. –384 p.
- [11]. Cook G. *Discourse and Literature.* – Oxford: Oxford University Press, 1994. – 340 p.
- [12]. Fakhritdinovna, B. D. (2024). *CLASSIFICATION AND DESCRIPTION OF HAND MOVEMENT VERBS IN UZBEK AND ENGLISH. International Journal of Advance Scientific Research, 4(06), 66-71.*
- [13]. Alibekova, D., Xolbayev, F., Shermatova, D., & Ikromova, G. (2024). *THE IMPORTANCE OF THE FICTION BOOKS IN READING AND WRITING SKILLS. Теоретические аспекты становления педагогических наук, 3(23), 36-40.*
- [14]. Xushnudabonu, S., & Abdunazarovich, E. Q. (2025). *Classification of indefinite pronouns in English. Shokh Library.*